

TALABALARNI MILLIY KONTENT ASOSIDA O'QITISHDA ZAMONAVIY METODIKALARNING O'RNI

Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Email: abdurasulmirzaakbarov95@gmail.com

Tel: [+998934941808](tel:+998934941808)

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarni milliy kontent asosida o'qitishda zamonaviy pedagogik metodikalarning o'rni, ularning samaradorligi va amaliyotga tatbiq etish yo'llari yoritilgan. Milliy qadriyatlar asosidagi ta'lim mazmunini yangicha metodikalar bilan uyg'unlashtirish bugungi kun ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shuningdek, maqolada interfaol, muammoli va kompetensiyaga asoslangan metodlarning milliylik asosidagi mazmun bilan uyg'unligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: milliy kontent, zamonaviy metodika, ta'lim sifati, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik integratsiya.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimida milliy qadriyatlar va an'analarni saqlagan holda, zamonaviy talablarga mos metodikalarni qo'llash dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, talabalarni o'qitishda milliy kontent asosida metodik yondashuvni takomillashtirish – yosh avlodni ona yurtga sadoqatli, ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashning muhim omilidir. Ta'lim jarayoniga zamonaviy metodikalarni joriy etish esa bu jarayonni samarali tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-447-sonli qarorida milliy qadriyatlar va an'analarga asoslangan ta'limni rivojlantirish alohida e'tibor markazida ekanligi ta'kidlangan [1]. Ta'lim jarayonida sifatli metodikalar asosida milliy kontentni o'rgatish uchun, avvalo, ta'lim sifati tushunchasini aniqlashtirish lozim. Bu masala ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Y.A. Yegorova oliy ta'limda sifatli o'qitish omillarini ijtimoiy va metodik mezonlar asosida tahlil qilgan [2]. R. Miller esa ta'lim sifati harakatlarini AQSh misolida tahlil qilib, zamonaviy boshqaruv strategiyalarining ta'limdagi o'rnini asoslab bergan [3].

1. Milliy kontent tushunchasi va uning o'quv jarayonidagi o'rni

Milliy kontent bu – xalqning tarixiy, madaniy, ma'naviy, axloqiy va mafkuraviy merosiga asoslangan ta'lim mazmunidir. O'zbekiston ta'lim tizimida milliy kontentga e'tibor kuchayib, uni pedagogik faoliyatga integratsiyalashga harakat qilinmoqda. Bu orqali:

- ✓ talabalar o'z xalqining tarixiy ildizlari bilan tanishadi;
- ✓ milliy o'zlikni anglash kuchayadi;
- ✓ ta'lim jarayoni hayotiylikka yaqinlashadi.

Milliy kontent asosida o'qitish Vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi[4].

2. Zamonaviy metodikalarning turlari va ularning mohiyati

Zamonaviy ta'lim metodlari quyidagilarga asoslanadi:

Interfaol metodlar – “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Baliq skeleti” orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlashga o‘rgatiladi;

Muammoli ta’lim – muammo qo‘yish, tahlil qilish va echimni topish bosqichlarida faol ishtirok etish;

Konstruktorlik metodikasi – “loyiha asosida o‘qitish” orqali amaliy bilimga yo‘naltirish;

Kompetensiyaviy yondashuv – bilim emas, balki ko‘nikma va kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan.

Masalan, “Baliq skeleti” texnologiyasi orqali “O‘zbek xalq ertaklaridagi axloqiy g‘oyalar” mavzusini tahlil qilishda talaba fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish ko‘nikmalarini egallaydi [5].

3. Milliy kontent va zamonaviy metodikalar integratsiyasi

Ta’limda milliy kontent bilan zamonaviy metodlarni uyg‘unlashtirish quyidagi afzalliklarni beradi:

Tarixiy va madaniy merosni amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirish;

Mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvning kuchayishi;

O‘quvchining shaxsiy tajribasiga asoslangan bilimlar shakllanishi.

Masalan, “Loyiha metodi” orqali talabalar “Mahallamiz tarixiy obidalari” mavzusida izlanish olib boradi va uni taqdimot shaklida taqdim etadi. Bu metodik yondashuv milliylik va innovatsiyani uyg‘unlashtiradi [6].

4. Amaliy tadqiqot va kuzatish natijalari

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 467-sonli qarorida belgilangan reyting mezonlari doirasida oliy ta’lim muassasalarining faoliyati va sifat ko‘rsatkichlari muntazam baholab boriladi [7]. Bu esa o‘qitish samaradorligini oshirishda zamonaviy metodik yondashuvlarni qo‘llash zaruriyatini ko‘rsatmoqda. 2024–2025 o‘quv yili davomida Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti talabalari ishtirokida o‘tkazilgan tajriba sinov darslarida quyidagilar aniqlandi:

Interfaol metodlar orqali milliy qadriyatlarni o‘zlashtirish 12% ga oshgan[8];

“Insert” metodidan foydalanilgan guruhda milliylikni aks ettiruvchi tushunchalarni o‘zlashtirish 10% yuqori bo‘lgan[9];

Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda mustaqil fikrlash darajasi 16% oshgan[10].

Bu natijalar zamonaviy metodikalarning samaradorligini ko‘rsatadi.

5. Taklif va tavsiyalar

Oliy ta'limda barcha fanlar kesimida milliy kontent asosida metodik qo'llanmalar yaratish;

O'qituvchilarni milliy qadriyatlar va innovatsion metodikalarni uyg'unlashtira oladigan darajada qayta tayyorlash;

O'quv dasturlarida milliy mazmunni interfaol metodlar bilan uyg'unlashtiruvchi mashg'ulotlarni kengaytirish;

Virtual laboratoriya, multimedia resurslari asosida milliy kontentni vizual taqdim etish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, talabalarda mustahkam bilim va kompetensiyalarni shakllantirishda milliy kontent va zamonaviy pedagogik metodikalarni uyg'unlashtirish zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Milliy kontent orqali yosh avlodga o'zlikni anglash, madaniy merosni qadrlash, milliy qadriyatlarni chuqur anglash imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, interfaol, muammoli, kompetensiyaviy va loyiha asosida o'qitish metodlari bu kontentni talabaning shaxsiy tajribasiga moslashtirish, uni faol ishtirokchi sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Zamonaviy metodikalar yordamida o'qitish nafaqat ta'lim mazmunini jonlantiradi, balki uni talaba hayotining markaziga olib chiqadi. Milliylik va innovatsiyaning uyg'unligi esa o'quvchida nafaqat bilim, balki ijtimoiy faollik, tafakkur erkinligi va ma'naviy barkamollikni ham shakllantiradi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, milliy kontent asosida zamonaviy metodikalarni qo'llash:

- ✓ ta'limning amaliy va hayotiyligini oshiradi;
- ✓ shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantiradi;
- ✓ zamonaviy jamiyat talablari va milliy qadriyatlar o'rtasida muvozanat yaratadi;
- ✓ ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Shu bois, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning faoliyatini takomillashtirishda milliy kontent va zamonaviy metodikalar integratsiyasi asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralishi lozim. Bu esa O'zbekistonning ta'lim tizimi xalqaro standartlarga mos ravishda taraqqiy etishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-447-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/4545878>.
2. Егорова Ю.А. Проблема качества высшего образования // Современные наукоемкие технологии. – 2022. – №1. – С. 43–44.
3. Richard I. Miller. The Quality Movements in Higher Education in the United States // Higher Education in Europe. — 2024. — Vol. XXI. № 2—3.
4. Qo'shoqboyeva G. Talabalarda milliy o'zlikni shakllantirishda ta'limning roli. – T.: Ma'rifat, 2021.
5. <https://lex.uz/docs/4371479>
6. Mirzaakbarov, A. M. "Oliy ta'lim tizimini integratsiyalashda milliy kontentdan foydalanishning o'ziga xos jihatlari". "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali 1-son. 2025.

–B 343-347

7. Mirzaakbarov, A. M. The relevance of educating primary education students based on national content. (2025). The Conference Hub, 38-43.

<https://theconferencehub.com/index.php/tch/article/view/170>

8. Mirzaakbarov A. Talabalarni milliy kontent asosida o‘qitishning ilmiy nazariy asoslari //MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI. – 2025. –T.3.–

№.4.<https://maktabgacha-va-maktab-talimi>

jurnal.uz/index.php/jurnal/article/download/972/318

9. Mirzaakbarov, A. M. “Oliy ta’lim tizimini integratsiyalashda milliy kontentdan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari”. “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali 1-son. 2025.

–B 343-347. <https://journal.namspi.uz/public/articleview/42>

10. Mirzaakbarov, A. M. “The scientific and methodological aspects of teaching students based on national content”. “European Journal of Research” volume

10.issue,3.2025pages29-34 <https://journalofresearch.eu/index.php/jreu/issue/view/29>